

## O'QUVCHILARGA INGLIZ TILINI O'QITISHDA INNOVATSION TEKNOLOGILAR VA INTERFAOL METODLARNING ROLI

*Rashidova Elmira Shavkat qizi*

*Samarqand davlat chet tillari instituti Ingliz tili 1-fakulteti*

*Xorijiy til va adabiyot yo'nalishi 2-bosqich talabasi.*

*Ilmiy rahbar: Ibadova Nafisa Axmatilloevna*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada til o'rganuvchilarning ingliz tilini o'qitishda zamonaviy texnologilar va interaktiv (interfaol) usullarning ahamiyati va ularning til o'rganishda ta'siri haqida qisqacha aytib o'tildi.

**Kalit so'zlar:** Mustaqil fikrlash, kreativ va innovatsion yondashuvlar, interaktiv metodlar va ko'rgazmali qurollar.

Hozirgi kunda chet tillini o'rganishga bo'lgan talab kuchaymoqda. O'quvchilarga ingliz tilini o'rgatishda innovatsion texnologilardan ya'ni ko'rgazmali qurollar va tarqatma materiallardan foydalanish samarali va foydali yo'l hisoblanadi. Fikrlash va fikr yuritish til o'rganuvchining aqliy faoliyatining, aql zakovatining yuksak shakli hisoblanadi. Mustaqil fikr yuritish til va nutq bilan chambarchas bog'liq bo'ladi, ular uzluksiz ravishda bir-birini taqozo qiladi.

Innovatsion texnologilarning roli va o'rnini katta ahamiyatga ega. Pedagogik texnologiya va pedagogik maxoratiga oid bilim, tajriba, interaktiv usullar til o'rganuvchilarning yetuk malakaga ega bo'lishi ta'minlaydi. Innovatsiya (inglizcha innovation) yangilik kiritish. Interaktiv metodlar - bu jamoa bo'lib fikr yuritish deb ataladi. Interaktiv metodlar o'quvchi va o'qituvchining birgalikdagi faoliyati bo'lib, asosan o'quvchilarni fikrlaga undaydi. Interaktiv metodlar o'quvchilarda doimiy faollikni ta'minlaydi. O'quvchilar dars davomida bo'sh qolmaydilar, ular mavzuga oid biror bir muammo bilan band bo'ladilar. Natijada esa zerikish holatini oldi olinadi. Ko'rgazmali va tarqatmali materiallardan foydalanib mavzularni tushuntirilsa, o'quvchilarning diqqati to'plash va darsga bo'lgan qiziqishini ortishi va mavzuni tez va oson o'zlashtirib olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Til o'rganish va o'qitishda innovatsion texnologiyaning roli beqiyosdir. Texnologik vositalardan foydalanish chet tili o'rganishning har bir aspekt (o'qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish)ida qo'l keladi. Masalan, tinglab tushunish uchun, albatta kompyuter, player, CD disklersiz bu jarayonni amalga oshirish mumkin emas. Tinglab tushunish til o'rganishning eng muhim qismlaridan biridir. Bunda o'quvchi bir paytning o'zida so'zlovchining talaffuzi, grammatik qoidalarga rioya qilganligi, so'z boyligi va uning ma'nolariga e'tibor berishi talab qilinadi. Ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishda o'quvchilar ham axborot —

kommunikatsion texnologiyalarni yaxshi bilish va ulardan foydalana olishi muhim omil hisoblanadi. Chet tilini zamonaviy texnologiyalardan foydalanib o'rgatish va o'rganish eng samador usullardan biridir.

Bu jarayonda, jumladan: -kompyuterlardan foydalanganda o'quvchi chet tilidagi video roliklarni, namoyishlarni, kino yoki multfilmlarni ham ko'rishi ham eshitishi mumkin; – chet tilidagi radio eshittirishlar va televideniyaedagi dasturlarni eshitish va tomosha qilish mumkin; – ancha an'anaviy usul hisoblanadigan magnitafon va kassetalardan foydalanish; – CD pleyerlardan foydalanish mumkin. Bu texnik vositalardan foydalanish o'quvchilarning chet tilini(ingliz tili)ni o'rganishlari jarayonini qiziqarliroq va samaraliroq bo'lishiga xizmat qiladi.[1.150]

O'qitishning interfaol metodi bir qancha interfaol va innovatsion usullardan iboratdir. Interfaol va zamonaviy usullarni qo'llash orqali o'qitish samaradorligini oshirishga, o'quvchilarni fikrlash qobiliyatini oshirishga katta imkoniyat yaratadi. Ana shunday usullardan "Callan metodi" darsga tadbiiq etish mumkin.

"Callan metodi" - ingliz tilini o'rganishning tez, qiziqarli va oson usuli bo'lib, o'quvchilarning tinglash va gapirish ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan. Uni 1960-yillarda Angliyada Robin Kallan ismli odam ixtiro qilgan. Bu metod barcha millat talabalari, kichik yoshdagi o'quvchilarga va barcha o'qish maqsadlari uchun javob beradi. Bu metod takrorlash va tezlikka asoslanadi, bu ikki narsa tilni o'rganishda muvaffaqiyatga kafolat beradi. Callan metodining boshqa metodlardan afzallikgi va farqi shundaki, ushbu usul orqali boshlang'ich ta'lim o'quvchilari balki barcha til o'rganuvchilari xorijiy tillarni tez va kam vaqt mobaynida va ko'p pul sarflamay samarali o'rganishadi. Dars mashg'ulotlarida o'quvchilar sinfga kirgandan boshlab ingliz tilida nutq so'zlashadi va ravon nutq so'zlaganlar rag'batlantiriladi. Til o'rganuvchilar dars davomida ingliz tilini faol mashq qiladilar, dars davomida gapiradilar.Callan usulida darsning tuzilishi to'rt bosqichga bo'linadi:

1. Yo'naltirilgan suhbat. Bir qator savol-javoblar orqali oldingi darslarda o'rgatilgan lug'atni tez sur'atda qayta ko'rib chiqish ...

2.Birgalikda o'qish. Darsdagi ayrim matnlari o'qituvchi bilan birgalikda o'qiydilar.

3.Diktant. ya'ni o'qigan matnlaridagi so'zlarni o'qituvchi o'qib tursa o'quvchilar uni eshitish orqali diktant qilib yozadilar.

4 Yangi lug'atlarni topish . Matn ichidagi yangi so'zlarni o'rganishadi va ularni yozilishi tallafuzini,ma'nosini o'rganadi. "Callan metodi " til o'rganilsa o'quvchilar so'zlar ham o'qilishi, yozilishi va aytilishini bir vaqtning mobaynida o'zlashtiradilar .[2.2]

Xulosa qilib aytganda, ingliz tili darslarida innovatsion texnologiyalardan va interfaol usullardan foydalanilsa til o'rganuvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlari shakllantiradi, nutqini o'stiradi va ravonlashtiradi. O'quvchi darslarga puxta hozirlik

ko`rishga qiziqishlari paydo bo`ladi. Ta`lim tizimi o`z oldiga qo`ygan maqsadi erkin bemalol fikrlovchi, barkamol, yetuk shaxsni tarbiyalashdir, kelgusida biz bo`lajak o`qituvchilar innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish yo`llarini yanada mukammalroq ishlab chiqishimiz bilan o`z xissamizni qo`shishimiz mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. «Zamonaviy dunyoda ilm-fan va texnologiya» nomli ilmiy-amaliy konferensiya INGLIZ TILLI FANINI O`QITISHDA MAKTAB O`QUVCHILARI UCHUN ZAMONAVIY METODLAR Matenova Ayjamal Koshkarbayevna Toshkent shahar Sergeli tumani 317 IDUM ingliz tili fani o`qituvchisi <https://doi.org/10.5281/zenodo.7198616> (150).
2. International scientific -practical conference KICHIK YOSHDAGI BOLALARGA (O`QUVCHILARGA) XORIJIY TILLARNI INTERFAOL USULLARDA O`RGATISH METODLARI Xolmatova Hamrobi Shermurod qizi(2). <https://www.intereuroconf.com/index.php/DESH/article/view/2464>
3. <https://azkurs.org/nizomiy-nomidagi-toshkent-davlat-pedagogika-universitetifizik-v2.html?page>.
4. BOSHLANG'ICH SINFLARDA INGLIZ TILI O`QITISHNING INNOVATSION USULLARI – тема научной статьи по языкознанию и литературоведению читайте бесплатнотекстнаучно-исследовательской работы в электронной библиотеке КиберЛенинка<https://cyberleninka.ru/article/n/boshlangich-sinflarda-ingliz-tilioqitishning-innovatsion-usullari>.